

## MULTIMEDIALI TA'LIM KORPUSI TAVSIFI

Saydaliyeva Matluba Shuxrat qizi,

[saydaliyeva1993@mail.ru](mailto:saydaliyeva1993@mail.ru)

O'zbekiston Milliy Universiteti jurnalistika fakulteti O'zbek Tilshunosligi kafedrası kompyuter lingvistikasi yo'nalishi magistratura II bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqola o'zbek tili milliy korpusi tarkibida multimedial ta'lim korpusini yaratish zaruratiga bag'ishlangan. Tadqiqotchi multimedial ta'lim korpusining boshqa an'anaviy tayyor qo'llanmalaridan afzalliklarini ko'rsatib bergan va uni yaratish masalasi dolzarb degan xulosaga keladi.

**Аннотация:** В статье говорится о необходимости создания мультимедийного образовательного корпуса в рамках Корпуса узбекского национального языка. Исследователь продемонстрировал преимущества мультимедийного учебного корпуса перед другими традиционными готовыми пособиями и сделал вывод об актуальности вопроса его создания.

**Annotation:** The article talks about the need to create a multimedia educational corpus within the framework of the Corpus of the Uzbek national language. The researcher demonstrated the advantages of a multimedia educational building over other traditional ready-made manuals and concluded that the issue of its creation is topical.

**Kalit so'zlar:** *multimedia, subkorpus, media ta'lim, rebus.*

O'zbekistonda ta'lim tizimini, xususan, xalq ta'limini yangi bosqichga ko'tarish zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi. Biz bugun o'quvchining qiziqish va ehtiyojlarini, o'qituvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib istiqbol rejalar tuzishimiz lozim. Bugungi o'quvchi 20 yil oldingi o'quvchidan ancha farq qiladi. Globallashuv tufayli axborot almashinuvi shu qadar tezlashdiki, endi o'qituvchi sergakroq bo'lmasa, o'quvchidan orqada qolib ketishi mumkin. Ilgari o'quvchilar darslik va o'qituvchi bergan ma'lumotlar bilan kifoyalanar edi, bugun bu ma'lumotlar yetarli bo'lmay qoldi. Shu ma'noda, yaratilayotgan milliy til korpusi, xususan, ta'limiy korpus mamlakatda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun katta qulaylikdir.

Ta'limiy korpus ona tili hamda xorijiy tilni o'rganishda birdek ahamiyatli. Tilni o'rgatishda lug'at boyligining ulkanligini ko'rsata olish, so'zning qo'llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik qurilma orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko'rsatishda korpus juda qo'l keladi. Til ta'limi uchun muhim bo'lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. O'qituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi, topshiriq, mashqlarni belgilashda qiynalmaydi, bir necha daqiqada mavzu bo'yicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi.

Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishda barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok etsa, bilish shunchalik osonlashadi. Shunga ko'ra, ta'lim sohasida multimedia dasturlaridan va umuman axborot kommunikatsiya tizimiga oid bilim va malakalarni kengaytirish va mazmunan boyitish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim har doim takomillashtirishga, yangilanishga muhtoj. Shu o'rinda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning ta'lim jarayoni to'g'risidagi quyidagi fikrlarini eslatib o'tmoqchimiz: *“Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi, tomosha qilgisi keladi, har bir yangi narsa rohat bag'ishlaydi”*.

1986-yilda Amida kompyuterida birinchi marta maxsus rolikda tovush bilan birgalikdagi animatsiya effekti namoyish qilinib, multimedaning shakllanishi nihoyasiga yetkazildi va bu yig'ilishda multimedia texnologiyasi yaratilgani e'tirof etildi. 1986-yil rasmiy ravishda multimedia yaratilgan (“tug'ilgan”) yili deb hisoblanadi. [Aminov B. 2014:12]

Bugungi kunda texnika va texnologiya izchil taraqqiy etayotganligi sir emas. Dunyoni mediasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Media uzluksiz ta'lim jarayonini qiziqarli materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o'tilishi va o'quvchi, talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, foto, video, kompyuter texnologiyalari, internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi.

Deyarli barcha davlatlarda ta'lim sohasiga media vositalarini yo'naltirish, darslarda media resurslaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu o'z samarasini bermoqda va ta'lim rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Qolaversa UNESCO qarorlarida, “Media ta'lim barcha mamlakatlarning milliy ta'lim tizimi rejalariga, shu bilan birga, nodavlat, qo'shimcha va hayotiy ta'limga kiritilishi lozim,” – deb belgilab qo'yilgan. Korporatsiyalar bilan ishlash, ya'ni kompyuter shaklida taqdim etilgan matnlar massivlari bilan ishlash uzoq vaqtdan beri lingvistik tadqiqotning asosiy usullaridan biri bo'lib, uning yordamida turli xil vazifalarni hal qilish mumkin. Bunday korpuslarning bir turi – o'quv korpuslari bo'lib, ular chet tilini o'qitishda va lingvistik pedagogikada qo'llaniladi. Korpus yondashuvi yoki matn korpusiga asoslangan lingvistik tadqiqot usuli tilni amaliy o'rganishga, uning real muhit va matnlarda ishlashiga qaratilgan bo'lib, bu til o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib, o'quv korpuslari nisbatan kam. Asosan, ularning barchasi ingliz tilini o'rganishga qaratilgan. Bu borada mahalliy tilshunoslik xorij tadqiqotining hozirgi holatidan ancha orqada qolmoqda.

Media ta'lim o'quvchining darsga qiziquvchanligini oshiradi, dars jarayonining har xilligini ta'minlaydi. Media ta'limning markazida o'quvchi shaxsi turadi, shunga ko'ra uning qiziqishi va xohish-istaklarini hisobga olish lozim. Xorijiy davlatlar pedagog olimlarining fikricha, mediata'lim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, o'quvchilarni dars jarayonida axborot bilan ishlash, axborot qidirish, zarurlarini ajrata bilish, qayta ishlashga o'rgatadi. Shu asosida o'quvchida axborot madaniyati shakllanadi.

Bir qator olimlar, metodistlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rtidan bir qismini, ko'rgan materialining uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa, axborotning ellik foizini esda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanilganda esa bu ko'rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi. Shu bois ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. [Rahimov A.2011:56]

Bundan 3500 yil oldin Konfutsiy *“Eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib olaman”* degan ekan.

Ta'limda informatsion hamda media ta'lim qo'llanganda tinglovchi, o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Ta'lim sohasida multimedia vositalari yordamida o'quvchilarga bilim berishning afzalliklari quyidagilardan iborat:


- Ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining yanada oshishi;
- Dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishilishi;
- Olingan bilimlarning kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi.

Multimediali elektron darsliklarning afzallik tomonlaridan yana biri mavzularga tegishli animatsiyalardan gipermurojaatlash yordamida foydalanish imkoniyati mavjud. Animatsiyalar harakat va ovoz bilan boyitilishi evaziga o'quv materiallarining mazmunini tushunarli tarzda yoritib beradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – bu ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga


erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazibberish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Ta'lim korpusidan multimedia vositalari bilan boyitilgan turli elektron darslik va qo'llanmalar, dars ishlanmalari, mavzulashtirilgan qiziqarli topshiriqlar o'rin olishi mumkin. Bu o'qituvchining vaqtini tejashi bilan birga, o'quvchining darsga qiziqishini ham oshiradi. Ta'lim korpusida kerakli fanni tanlash oynasi ekranga chiqadi. (1-rasm)



1-rasm

Ona tili fani bo'yicha ham turli qiziqarli topshiriqlar tayyorlash mumkin. Masalan, barqaror birikmalar mavzusi bo'yicha multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda quyidagicha topshiriqlar tayyorlaymiz: (2-rasm)



2-rasm

Bunda tarixiy va arxaik soʻzlar animatsiya yordamida chizilgan yoʻlak boʻylab oʻzi harakatlanib kerakli qutiga tushadi.

Barqaror birikmalar tarkibiga kiruvchi maqol va iboralarni multimedia bilan boyitib topshiriq tayyorlash mumkin. (3-rasm)



3-rasm

Rasmlar yordamida ibora va maqollarni rebus tarzida ifodalash mumkin. Oddiy zerikarli maʼruzalardan koʻra bu kabi qiziqarli darslar bugungi kun zamonaviy oʻquvchilarini qiziqtiradi va samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, multimediali taʼlim korpusi har bir oʻquvchining eʼtiborini torta oladi, uning yaratilishi oʻqituvchi, oʻquvchi va umuman taʼlim sohasi uchun katta yutuq boʻladi degan fikrdamiz.



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aminov B. Mutimedialar orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish. UNICEF to'plam 2014 y. fevral – Samarqand davlat universiteti
2. Rahimov A. «Kompyuter lingvistikasi asoslari». «Akademnashr» nashriyoti, 2011-yil.
3. Богданова, С.Ю. О разработке учебного мультимодального корпуса текстов. [Текст] / С.Ю. Богданова // Материалы XLII международной филологической конференции. Секция прикладной и математической лингвистики. С.-Петербург, 2013 – с.27-33
4. Гришина Е.А., Мультимедийный русский корпус: современное состояние и перспективы развития 2008. № 3. С. 50–62